

Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llari.

Naimova Sabina Vahob qizi

Buxoro Davlat universiteti

San‘atshunoslik fakulteti,

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası

Vakal an‘anaviy xonandaligi ta‘lim yo‘nalishi.

Annotatsiya. Milliy musiqiy ijrochiligimiz uch asosiy yo‘nalishda, ya‘ni Xorazm - Buxoro -Farg‘ona ijrochilik maktablari zamirida rivojlanganligi barchamizga ma‘lumdir. Har bir voxa xalqining etnik joylanishi, urf-odatları, mahalliy mentaliteti, yashash turmush tarzi zamirida o‘ziga xos musiqiy ijrochilik uslublari ham mavjuddir. O‘n ikki maqom asosida Shoshmaqom yaratilganligi, Shashmaqom zamirida bastakorlarimiz tomonidan bir-biridan go‘zal cholg‘u va ashula yo‘llari yaratilganligi aniq manbalar asosida bizgacha yetib kelgan. Ushbu maqolada Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari va uning o‘ga hos jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining boshqa ijro yo‘llaridan faqrlı tomonlari tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: voxa, etnik, urf-odatları, mahalliy, mentalitet, musiqiy, uslub, bastakor, go‘zal, cholg‘u, ashula.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari — Toshkent va Farg‘ona vodiysi (Qo‘qon, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Marg‘ilon, Quva va boshqalar) musiqqa amaliyotida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomidir. Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan faqrlı o‘laroq alohida-alohida cholg‘u va ashula yo‘llaridan iborat. Jumladan, cholg‘u yo‘llari "Nasrullo I-V", "Munojot I-V", "Ajam va taronalari", "Miskin I-V", "Segoh I-III", "Sayqal I-II", "Mirzadavlat I-II", "Cho‘li Iroq", "Chorgoh", "Surnay Iroqi", "Surnay Dugohi" "Surnay Ushshog‘i" kabilar mashhur. Ashula yo‘llari alohida bir qismli ("Segoh, "Toshkent" irog‘i" kabi) namunalardan tortib keng ko‘lamli turkumlardan tashkil

topgan. Ayniqsa, besh qisimli "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti Sheroziy", "Gulyor*Shahnoz" va yetti qisimli "Dugoh-Husayn" ashula yo'llari ommalashgan. Ular mumtoz she'riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy va boshqalar) namunalari asosida o'qiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom turkumlarining qismlari raqamlar vositasida ajratiladi (mas, "Miskin I", "Miskin II", "Bayot I"). Ayrim hollarda tarkibiy qismlarning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, "Miskin" cholg'u turkumining III qismi "Adoiy", IV qismi "Asiriy", "Nasrullo"ning II qismi "Chavandoz", III qismi "Qashqarcha", IV qismi "Tarona", V qismi "Ufar" deb nomlanadi. Shuningdek, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari cholg'u kuylarining ayrimlariga nisbatan "Mashq" atamasini qo'llash odati mavjud (mas, "Mashqi Chorgoh", "Mashqi Dugoh-Husayn" va h.k.).

Shuningdek, Farg'ona-Toshkent ijrochiligida quyidagi turkum ijrolar ham mashhurdir: Buzruk maqomi sho'balari bilan hamohang Abduraxmonbegi I, II va uning Ufori, marg'ilonlik Madali xofiz tomonidan 7 ta ijrogacha to'ldirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysida «Madalibegi» deb ham yuritilgan. Abduraxmonbegi I, II, III, IV, V, VI, VII ijrolari aksariyati o'sha davrda zamondosh bo'lgan Muqimiy g'azallari bilan aytiladi. Rost maqomining «Savti Kalon» sho'basi shahobchalari asosida yaratilgan Qalandar I, II ashulasi ham to'ldirilib, Qalandar I, II, III, IV, V tarzida ijro etiladi. Yana bir el sevgan mashhur ijrolardan «Tanovar» turkumidir. Xozirda Tanovarning 13 ta ijrochilik yo'llari mavjud bo'lib, 9 ta ashula - yalla yo'li, 4 ta musiqiy yo'li bilan jilolanadi. Bulardan to'rtichisi dutor tanovari deb yuritiladi. Xalq bastakorlari Farg'ona –Toshkent maqom ijrochilik yo'llariga monand yuzlab ashulalar va musiqalar yaratganlar. Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Doni Zokirov, Muxtorjon Murtazoyev, Jo'raxon Sultonov, Orifxon Xotamov singari bastakorlar ijodlari bunga misol bo'la oladi. Natijada maqom yo'llari asosida yuzlab ashulalar va musiqalar xalq mulkiga aylandi. Keyinchalik bastakor Imomjon Ikromov Navoiyning «Qaro ko'zim» radifli g'azalini juda moxirlik bilan shu yo'lga solib,

yana ham mashhur ijroga aylantirdi. Bu ijro Toshkent Ushshoqi deb ham yuritiladi. Ushshoq 1 dan kelib chiqadigan Daromadi Ushshoq, Xoji Abdulaziz tomonidan qayta ishlangan Samarqand Ushshoqi, ijroda bir xillik kasb etadi. Ushshoqning yana bir namunasi xo‘jandlik xofiz va bastakor Sodirxon Bobosharipov tomonidan jilolangan va «Sodirxon Ushshoqi» nomi bilan mashhur bo‘lgan varianti ham «Ushshoq I» ning shakliga hamohangdir. Ushshoq ijrolari orasida Qo‘qon Ushshoqi sadolanish shakli, avjlardagi o‘zgarishlar jihatidan boshqa Ushshoq yo‘llaridan sezilarli farq qiladi. O‘ziga xos ohanglar tuzilmasiga egadir. Shunisi diqqatga sazovorki, Ushshoqlarning barcha ijrolari Shashmaqomdagi Ushshoq sho‘balari ohanglariga asoslangan bo‘lsada, ularning har biri o‘ziga xos kuy tuzilishiga ega, tasirchanlik xususiyatlari ham har xildir.¹

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining shakllanish ildizlari o‘rta asrlarda mashhur bo‘lgan "O‘n ikki maqom" tizimi va undan ham oldinroq mavjud turkumli asarlarga borib taqaladi. "Yo‘llari" atamasi ham shunga ishora etadi. Zero "maqom" atamasidan avvalroq musiqa ilmi amaliyotida "yo‘l" ma’nosidagi "roh", "tariqa", "ravashin" kabi tushunchalar keng qo‘llanib kelingan. Shashmaqomdan farqli ravishda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog‘liq turli vaziyat va sharoitlarda ham mudom ijro etilgan. Masalan, surnay yo‘llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o‘yini va to‘y bazmlarida, dutor, tanbur, g‘ijjak ijrolari hamda ashula yo‘llari uy sharoitlarida o‘tkaziladigan turli yig‘in va majlislarda namoyon bo‘lgan. Ayni paytda, bu maqomlarda Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubiga xos yalla, ashula, katta ashula janrlarining xususiyatlari o‘z aksini topgan. Bu holat ularning musiqiy tili xalqchil va nisbatan ommaviy ekanligi, xalq orasida mashhur bo‘lishi sabablaridan biridir.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari ijrochilari mazkur an’anani odatda mashhur ustozlardan o‘rganishgan. Shu tarzda bu maqomlarni bizga yetkazib

¹ Ibrohimov O., Maqom va makon, Toshkent, 1996.

bergan taniqli talqinchilar qatorida Abduqodir naychi, Ahmadjon qo‘shnay, A.Yusupov (surnay), Shobarot tanburchi, A.Abdullayev (tanbur), Muhiddin Najmiddinov (dutor, tanbur), Komiljon Jabborov (g‘ijjak, dator), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dator), G‘anijon Toshmatov (g‘ijjak), Turg‘un Alimatov (tanbur, dator), hofizlar — Shorahim Shoumarov, To‘ychi hofiz, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Rajabiylar, Rasulqori Mamadaliyev kabi ustoz san’atkorlarning xizmatlari katta. Bastakorlardan To‘xtasin Jalilov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, so‘nggi yillarda Abduhoshim Ismoilovlar Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari an‘analarida turkumli va alohida ijro etiluvchi asarlar yaratishgan.²

Ashula so‘zlari ijro yo‘nalishiga qarab bo‘lib olinadi va maolom joylarda birga kuylanadi va birga tamomlanadi. «Rabbano dodimga yet», «Aylansin quling», «Bir kelsun», «Shafolat», «Adashganman», «Ey dilbari jononim», «Yovvoyi Chorgoh» singari patnisaki ashulalar juda mashhurdir. Keyinchalik «Bog‘aro», «Kirib bo‘stonni kezdim», «Kanolim», «O‘zbekistonim» kabi katta ashulalar ham shu qatorga qo‘shiladi. Hamroqul qori To‘raqulov, Xolqora xofiz, Erka qori Karimov, Xaydarali Xikmatov, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Boltaboy Rajabov, Mamadbobo Sattorov, Jo‘raxon Sultonov singari mashhur xofizlar katta ashula bobida dong taratganlar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek musiqiy san‘atida Farg‘onaToshkent ijrochilik maktabi alohida o‘rin tutadi. Bu maktabning musiqiy va ashula ijrochiligi aniq uslubga, doyra usuliga, musiqiy tuzilmasiga egadir. Bu an‘ana davom etmoqda va xozirda ham xalq bastakorlari ijodlarining samarasi o‘laroq Farg‘ona - Toshkent ijrochilik yo‘llari boyib bormoqda. Ushbu ijroni amalga oshiradigan sozanda va xofizlar ham yetishib chiqmoqda.

² Rajabov, Ishoq; Yunusov, Ravshan; O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2004.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rajabov I., Maqomlar masalasiga doir, Toshkent, 1963.
2. Ibrohimov O., Maqom va makon, Toshkent, 1996.
3. Matyoqubov O., Maqomot, Toshkent, 2004.
4. Rajabov, Ishoq; Yunusov, Ravshan; O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2004.